



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 6-noyabr

549-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Ko‘kdala tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi ichki
yo‘llarning egallab turgan yer maydonini doimiy foydalanish huquqi asosida
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 23-sentabrdagi 699-sonli va Ko‘kdala tumani Obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 98-sonli buyurtma xatlarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ko‘kdala tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga Ko‘kdala tumanidagi ichki yo‘llarning egallab turgan 2,25 gektar tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-noyabrdagi
549-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil Tashabbusli byudjet doirasida ichki yo‘l ob’ektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida
ma’lumot**

T/r.	Tuman nomi	MFY nomi	Yo‘l uzunligi (km)	Gektari
		Ko‘kdala tumani	5	2,25
1	Ko‘kdala tumani	Ko‘kdala tumani “Sho‘rbozor” MFY Yakkasaroy, At- Termiziy, Sug‘diyona va Mirzaobod ko‘chalarining ichki yo‘llari	5	2,25